

ISSN: 2687-0142

**ИНТЕРНАУКА**

**НАУЧНЫЙ  
ЖУРНАЛ**

**44(267)**

**часть 8**



[internauka.org](http://internauka.org)

г. Москва



## **«ИНТЕРНАУКА»**

*Научный журнал*

№ 44(267)  
Декабрь 2022 г.

Часть 8

Издается с ноября 2016 года

Москва  
2022

Председатель редакционной коллегии:

**Еникеев Анатолий Анатольевич** - кандидат философских наук, доцент, доцент кафедры философии КУБГАУ, г. Краснодар.

Редакционная коллегия:

**Авазов Комил Холлиевич** - доктор философии (PhD) по политическим наукам;

**Бабаева Фатима Адхамовна** – канд. пед. наук;

**Беляева Наталия Валерьевна** – д-р с.-х. наук;

**Беспалова Ольга Евгеньевна** – канд. филол. наук;

**Богданов Александр Васильевич** – канд. физ.-мат. наук, доц.;

**Большакова Галина Ивановна** – д-р ист. наук;

**Виштак Ольга Васильевна** – д-р пед. наук, канд. тех. наук;

**Голованов Роман Сергеевич** – канд. полит. наук, канд. юрид. наук, MBA;

**Дейкина Алевтина Дмитриевна** – д-р пед. наук;

**Добротин Дмитрий Юрьевич** – канд. пед. наук;

**Землякова Галина Михайловна** – канд. пед. наук, доц.;

**Канокова Фатима Юрьевна** – канд. искусствоведения;

**Кернесюк Николай Леонтьевич** – д-р мед. наук;

**Китиева Малика Ибрагимовна** – канд. экон. наук;

**Кобулов Хотамжон Абдукаримович** – канд. экон. наук;

**Коренева Марьям Рашидовна** – канд. мед. наук, доц.;

**Кадиров Умарали Дусткабилович** - доктор психологических наук;

**Напалков Сергей Васильевич** – канд. пед. наук;

**Понькина Антонина Михайловна** – канд. искусствоведения;

**Савин Валерий Викторович** – канд. филос. наук;

**Тагиев Урфан Тофиг оглы** – канд. техн. наук;

**Харчук Олег Андреевич** – канд. биол. наук;

**Хох Ирина Рудольфовна** – канд. психол. наук, доц. ВАК;

**Шевцов Владимир Викторович** – д-р экон. наук;

**Щербаков Андрей Викторович** – канд. культурологии.

**И73 «Интернаука»:** научный журнал – № 44(267). Часть 8. Москва, Изд. «Интернаука», 2022. – 56 с. Электрон. версия. печ. публ. – <https://www.internauka.org/journal/science/internauka/267>

<b>Содержание</b>	
<b>Հողվածներ հայերենով</b>	<b>5</b>
<b>ՊԱՏՍՈՒԹՅՈՒՆ և ՀԱՊԻՏՈՒԹՅՈՒՆ</b>	<b>5</b>
ԿՈՎՈՐԻՖԻԿԱՆՑԻԱ ԵՎ ԿՈՆԿՐԵՏԻՎ ԿՐԹՈՒՄԻՆԻ ՎԵՐԱԿՈՆԿՐԵՏԻՎ ԿՐԹՈՒՄԻՆԻ 1875թ. Այվազյան Գևորգ Սամվելի	5
<b>Қазақ тілінде мақалалар</b>	<b>7</b>
<b>Ақпараттық технологиялар</b>	<b>7</b>
АДСОРБЦИЯ ЖӘНЕ ТАСЫМАЛДАУ ҮРДІСІН МОДЕЛДЕУ Тажиева Рысты Нарбаевна Сексенбаева Айзат Бахытовна Құдайбергенова Рамиля Ғамзатқызы	7
БЛОКЧЕЙН ТЕХНОЛОГИЯСЫН БІЛІМ БЕРУ ЖҮЙЕСІНЕ ЕНГІЗУ Холидуллаева Диана Отарбай Дәурен	11
<b>Математика</b>	<b>14</b>
ҚАЗАҚСТАН РЕСПУБЛИКАСЫНЫҢ СТАТИСТИКАЛЫҚ МӘЛІМЕТТЕРДІ БАҚЫЛАУ БОЙЫНША STAT.GOV.KZ БАҒДАРЛАМАСЫН ЗЕРТТЕУ Қадырберген Аслан Русланұлы Лесбек Туғанай Дарханқызы Нурмаханбетова Диана Сугурова Лаура Алхайдаровна	14
<b>Техникалық ғылымдар</b>	<b>18</b>
ҚАЗАҚСТАНДА ҚАЛҚЫМАЛЫ ЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРЫН ПАЙДАЛАНУ Махамбетов Олжас Қазыбекович Тлеугабылова Махаббат Құдайбергеновна Маликов Нурбол Муратович	18
<b>Философия</b>	<b>21</b>
ЖЫРАУЛАРДЫҢ ФИЛОСОФИЯЛЫҚ ТҰЖЫРЫМДАМАСЫНДАҒЫ РУХАНИ АДАМГЕРШІЛІК МӘСЕЛЕСІНІҢ САБАҚТАСТЫҒЫ Қуандықова Эльмира Джамбуловна Изетелеуов Абай Анесович Мусабекова Гаухар Қурманбековна	21
<b>O'zbek tilida maqolalar</b>	<b>24</b>
<b>Tarix va arxeologiya</b>	<b>24</b>
A. TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TIBBIYOTI MANBASHUNOSLIGINING AHAMIYATI Niyozova Nilufar Shomuratovna	24
<b>Pedagogika</b>	<b>26</b>
ҚУРИЛИШ ФАНЛАРИНИ ҰҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ Қахаров Зайтжан Васидович Кодиров Надирбек Бахтиёр угли	26
<b>Muhandislik, ilm-fan</b>	<b>28</b>
KASSETTALI SHPINDELLARNING ISHLATISH SAMARALIGINI BAHOLASH UCHUN EKSPERIMENTAL TADQIQOTLAR Ablyalimov Oleg Sergeyevich Qosimov Xusan Raxmatullaevich Julenev Nikolay Vladimirovich Jamilov Shuhrat Farmon o'g'li Keldibekov Zokirbek Olloberdiyevich	28

4. Есім. Фалсафа тарихы. Алматы, 2004.
5. Қазақ халқының тарихи тұлғалары: Қысқаша анықтамалық. – 2-кіт. – Алматы: Өнер, 2013. – 360 б.
6. Мағауин М., Байділдаев М. (құр.). Бес ғасыр жырлайды. Т.1. - Алматы, Жазушы, 1989. - 352 б.
7. Философский энциклопедический словарь/ под ред. Е.Ф. Губского и др. - М. 2001.

## O'ZBEK TILIDA MAQOLALAR

## TARIX VA ARXEOLOGIYA

## A. TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TIBBIYOTI MANBASHUNOSLIGINING AHAMIYATI

*Niyozova Nilufar Shomuratovna*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti,  
falsafa fanlari nomzodi,  
O'zbekiston, Toshkent*

Mustaqillik yillarida barcha sohalar qatori tibbiyot sohasini tubdan isloh etish, inson salomatligini saqlash davlat siyosatining ajralmas qismi bo'lib qoldi. Pirovard natijada aholining umr ko'rishi o'rtacha 73 yoshni (ayollarda 75 yosh) tashkil etdi. Albatta, hozirgi zamon tibbiyotini yuksak darajada rivojlantirishda xorijiy tajribalar, soha xodimlarining intellektual bilimi va kasbiy mahorati muhim rol o'ynaydi. Respublikamizda tibbiyotni rivojlantirishning barcha qonuniy-huquqiy asoslari yaratilgan. Biroq, shuni alohida ta'kidlash kerakki, zamonaviy tibbiyot rivojida tarixiy tajribalarning, ya'ni ajdodlarimizdan qolgan noyob manbalar, uslubiy qo'llanmalar, o'g'itlarning o'rni beqiyosdir.

A.Temur va Temuriylar davri nafaqat xalqimiz, balki dunyo sivilizatsiya rivojida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida A.Temur va Temuriylar davri ilmiy-amaliy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy merosini o'rganish bu davrga xos ko'plab manbalar bilan yaqindan tanishish hamda hayotga tatbiq etish imkonini berdi. Xususan, bu sulola davri tibbiyoti manbashunosligini o'rganish inson salomatligini saqlashda ham tarixiy, ham tibbiy tajriba sifatida sohada yangi imkoniyatlarni ochishga ko'mak bermoqda.

A.Temur va Temuriylar davrini o'rganar ekanmiz, har bir soha ravnaqi ijtimoiy muhitda o'z aksini topganligiga amin bo'lamiz. Binobarin, A.Temur davlat arbobi va yuksak martabali shaxs sifatida sog'liqni saqlash tizimining homiysi ekanligi e'tirof etish mumkin. Tarixdan ma'lumki, A.Temur Samarqand atrofida juda ko'plab bog'lar barpo ettirgan. Bu bog'lar Bog'i Baland, Bog'i Nav, Bog'i Shimol, Bog'i Bihisht kabi nomlar bilan mashhur bo'lgan. Aytish joizki, bog'lar, umuman obodonlashtirish ishlari nafaqat shaharsozlik namunasi, balki inson salomatligini saqlashning ekologik asoslarini belgilaydi.

A.Temur va Temur davrida barcha sohalar barobarida tibbiyot ham keng rivoj topdi. Bu davrda yetishib chiqqan tabiblar turli kasalliklarning oldini olish va davolashga oid ilmiy asarlarni yaratdi. Umuman, bu davr tibbiyot rivojining mezonlari:

- tibbiy profilaktika ishlari;
- davolash ishlari;
- salomatlikni saqlashga doir amaliy tadbirlar;
- madrasa ilmi;
- tibbiyotga oid ilmiy asarlarning yaratilishi.

Bu davrga oid o'rganilgan ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, o'rta asrlarda yuqumli kasalliklar ko'proq uchragan. Buning oldini olishda A.Temur ariq, hovuz va kanallardagi suvlarni nihoyatda toza tutishga e'tibor qaratgan [1]. A.Temur davrida "begar" deb ataluvchi majburiyat ham aynan shu ishlarni qamrab olgan. Bunday ko'rilgan chora-tadbirlar o'sha davr tibbiy-profilaktika va gigienik madaniyatining mavjudligini isbotlaydi.

A.Temur va Temuriylar davriga oid manbalar orasida amaliy tadbirlar bilan birga tibbiyotga doir manbalar alohida ahamiyatga ega. Bu manbalarni o'rganib xulosa qilish mumkinki, boshqa sohalar qatori tibbiyot o'rta asrlarda yuksak darajada rivojlangan. Ma'lumotlarga qaraganda (Sharafuddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshoh), A.Temur Shom (Suriya) dan Samarqandga bir qancha tabiblarni olib kelgan: Mavloni Jaloliddin, Mavlon Sulaymon, Mavloni Fazlulloh Tabriziy A.Temurning shaxsiy tabibi bo'lgan [1].

Tibbiyotni o'rganishdagi boshlang'ich fanlardan biri odam anatomiyasi bo'lib, bu fanning atoqli vakillari A.Temur va Temuriylar davrida ham samarali ijod qilgan. Jumladan, mashhur tabib Mansur ibn Muhammad ibn Ahmad Yusuf ibn Faqih Ilyosning "Tashrix-i Mansuri" asaridan tashqari anatomiyaga bag'ishlangan "Risola dar tashrix-i badan-i inson" ("Inson anatomiyasiga oid risola") asarini keltirish mumkin. Bu asarda suyak, asab, muskullar va qon tomirlarning mufassal keltirilgan. Asarning qimmatli tomoni shundaki, asar xotimasida inson tanasining murakkab a'zolari haqida so'z yuritiladi [1].

A. Temur va Temuriylar davri tibbiyoti manbashunosligida asosiy tibbiy asarlarga bitilgan sharhlar orasida kermonlik Burhoniddin Nafis Hakim al-Kermoniyning Najibuddin Samarqandiyning "Kasalliklarning sabablari" ("As-asbob va-l-alomat") asariga, G'iyosiddin Muhammad ibn Jaloliddin tabib esa o'z zamonasida mashhur bo'lgan "Muolajoti ilohiy" deb nomlangan asarga yozilganlarni keltirish mumkin.

XIX asrda Angliyada yashagan jarroh Jozef Lister operatsiya qilingan joylarga mikroblar tushganda yiringlashini kuzatdi va buning oldini olish choralarini topdi. Jarroh Jozef Lister doimo mikroblar o'ldiradigan (yod, novshadil spirt), vositalari bilan qo'llarini yuvib, jarrohlik amaliyotini o'tkazadigan bo'lgan [2]. Jozef Lister qo'llagan ushbu antiseptik va aseptik usulni

Samarqandda XV asrda yashagan Tojiddin Hakim qo'llagan, ya'ni operatsiyadan oldin qo'lini to'g'ralgan piyoz bilan artgan, biroq bu usul tibbiyotda joriy qilinmay qolib ketgan. "...bu usulni XIX asrda Angliya jarroxi Jozef Lister qaytadan tiklab rivojlantirdi" [2]. Demak, XIX asrda ingliz jarrohi kashf etgan gigienik aseptikaga Samarqandda XV asrda yashagan Tojiddin Hakim ilk kurtaklar sifatida bo'lsa-da asos solgan. Buni kasb amaliyotidagi tibbiyot yutug'i deb hisoblash mumkin.

A. Temur va Temuriylar davrida tibbiy fan va sohalarni aks ettiruvchi fundamental shifoxonalar ham qurilgan edi (zamonaviy davrda klinikalar). Hirotidagi Mahdi ulyo Milkat oqa qurdirgan "Dorush-shifo", 1480-1482 yillarda A.Navoiy ko'rsatmasi bilan esa Hirot yirik tibbiy majmua bunyod etilgan. A.Navoiy tomonidan qurdirilgan ushbu majmua "Shifohiya" kasalxonasi, "Ixlosiya" madrasasi (tibbiy bilimlarni beruvchi) va "Sovoxiya" hammomidan iborat bo'lgan. Ahamiyatlisi shundaki, bu davrda qurdirilgan shifoxonalar davolanish bilan birga, dam olish, hordiq chiqarish maskanini ham o'tagan (sanatoriya va pansionat vazifasi).

Tibbiyot rivoji malakali kadrlar bilan bog'liq masala. A.Temur va Temuriylar davrida ham tibbiyot kadrlarini tayyorlash ishlari ham faol olib borilgan. Kadrlarni tayyorlash asosan o'sha davr oliy ta'lim muassasasi – madrasalarda olib borilgan. "A.Temur va Temuriylar tabobat faniga homiylik qilib, ushbu fan tarmog'ining keng rivojlanishiga ko'maklashdilar" [1].

Tarixchilar yozishicha, Gavharshod oqa va Ixlosiya madrasalarida Mavloni Kamoliddin Mas'ud Shervoniy ko'p yillar mudarrislik qilgan. U qon chiqarish uslubini puxta egallab, G'iyosiy madrasasida talabalarga dars bergan. A.Navoiy Darvish Alining tabiblik mahoratini yuqori baholagan. Darvish Ali Dor ush-shifo (Milkat oqaning)da ilmi toliblarga tibbiyot sirlarini o'rgatgan.

Xullas, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Fasih Havofiyning "Mujmal Fasihiy", Xondamirning "Xulosat al-axbor" asarlarida keltirilishicha, o'sha davr

shifoxonalarida madrasalarda tahsil olgan ko'plab tabiblar faoliyat yuritardi.

Hozirgi davrda A.Temur va Temuriylar davri tarixini o'rganish globalashib bormoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu davr tarixini, uning ahamiyatini o'rganayotgan olimlar sirasiga – yaponiyalik professor Kato (A.Temur, M.Ulug'bek, Z.M.Bobur asarlarini yapon tiliga tarjima qilish), hindistonlik professor Mansura Haydar xonim (Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si va A.Temurning davlatchiligi tarixini tatbiq qilish), Qohira Universiteti professori Magida Mahluf (Z.M.Boburning asarlarini arab tiliga tarjima qilish va sharhlar yozish) kiritish mumkin. Bu esa milliy madaniyatimiz va tariximiz umuminsoniy ahamiyat kashf etayotganligini yana bir bor namoyon etadi.

Xulosa o'rinda beradigan fikrimiz mazmunida A.Temur va Temuriylar davri tibbiyoti manbalarini o'rganishning ahamiyatini quyidagicha belgilash mumkin:

**Birinchi**dan, "Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma'naviy muhit mavjud bo'lmog'i kerak"[3]. Shu bois, A.Temur va Temuriylar davri tarixini o'rganish ham ma'naviy muhit, ham ilm-fan rivoji doirasini kengaytiradi.

**Ikkinchi**dan, tibbiyotga nafaqat inson salomatligini saqlashdagi mexanizm, balki soha, fan, ijtimoiy zarurat va hodisa sifatida yondashish tarixiy tajriba hamda manbalarga ko'proq murojaat qilishni taqozo qiladi.

**Uchinchi**dan, yosh avlodning intellektual salohiyati yuksaltirishda A.Temur va Temuriylar davri tarixini o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lib, "XXI asr – bilim va intellektual tafakkur asri"da yurtimiz tarixi, xalqimiz tibbiyot sohasi yutuqlarini jahon miqyosida yanada ko'proq namoyon etishga ko'mak beradi.

#### Адабиётлар рўйхати:

1. А.Темур жаҳон тарихида. Париж-1996. Шарқ, 1996. 150,151-бетлар.
2. Қодиров А.А. Тиббиёт тарихи. Т.:Ибн Сино,1993. 211-бет.
3. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.Каримовнинг "Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккиларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидagi роли ва аҳамияти" мавзусидаги халқаро конференцияда қилган маърузаси. 2014 йил 15-16 май. Самарқанд.